

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

H.Xakimov, B.A.Nabiyev

Hozirgi zamon ekologik masalalari va Markaziy Osiyoda transchegaraviy suvdan foydalanish muammosi 217

X.Raxmatova

Abu Said Abulxayrning “Risolai havroiyya” asari Xoja Ahror Valiy falsafiy talqinida 225

B.Iminov

Turkiston ziroatchilik va davlat mulki boshqarmasi “Dehqon” jurnalining tarixi 229

O’Ahmedova

Davlat va jamiyat boshqaruviga ma’naviy tarbiyaning ta’siri 233

B.Xasanov

Terrorizm va ekstremizmning jamiyatga tahdidi 236

B.Yalgashev

Samarqand vohasida ziyyarat turizmini rivojlantirish masalalari 240

J.Yusubov

Abu Nasr Forobiy hayoti va ijodining o’ziga xos jihatlari 245

D.Sagdullaeva

Jamiyat modernizatsiyalashuvining ijtimoiy-falsafiy tahlili 248

A.Tojaliyev

Oliy ta’lim-yangi O’zbekistonni barpo etishning muhim sharti 254

E.Zoyirov

Ya’qubi Charxiy ijtimoiy-siyosiy qarashlari 258

U.Azimov

Yoshlarning demokratik islohotlarga aksiologik munosabatini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari tahlili 264

A.Abdumalikov

Jamiyatda uzliksiz ta’lim tizimining shaxs ekologik madaniyati yuksalishidagi roli 267

I.Rizayev

Sinergetika: ijtimoiy tizimni tadqiq qilishdagi muammo va imkoniyatlar 272

R.Mardonov

Sharq va g’arb ta’lim falsafalarining o’zaro ta’siriga asoslangan madaniyatlararo muloqot 279

F.Yuldashev

Abu Nasr Forobiy falsafasida aqliy bilish panteizmi 283

F.Usmonov

Zamonaviy kompyuter etikasi muammolari 282

H.Muhamadiyev

Virtuallik yangi falsafiy kategoriya sifatida 293

SIYOSAT

D.Sharipov

Tinchlikni ta’minlashning innovatsion omillari 298

M.Habibullaev

Korrupsiyadan xoli jamiyat barpo etishda ma’naviy – ma’rifiy islohotlarning dolzarbliji 302

M.G’anyeva

Xotin-qizlarda tadbirkorlik tafakkuri va uning jamiyat ijtimoiy taraqqiyotidagi o’rni 305

O.Boboqulov

Kongoning mustaqillikka erishish jarayonida O’zbekiston SSR bilan diplomatik munosabatlari 309

J.Sultonov

Markaziy Osiyo chegara muammolari yechimini konstruktivizm nazariyasini yordamida tahlil qilish 311

DAVLAT VA JAMIAT BOSHQARUVIGA MA'NAVIY TARBIYANING TA'SIRI**ВЛИЯНИЕ ДУХОВНОГО ВОСПИТАНИЯ НА ГОСУДАРСТВЕННОЕ И
ОБЩЕСТВЕННОЕ УПРАВЛЕНИЕ****THE EFFECT OF SPIRITUAL EDUCATION ON STATE AND SOCIETY
ADMINISTRATION****O'g'ilxon Nomozovna Ahmedova¹****¹O'g'ilxon Nomozovna Ahmedova**

– Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi.

Annotatsiya

Mazkur maqolada davlat va jamiyat boshqaruvidagi davlat xizmatchisini ma'naviy salohiyati uzlusiz rivojlanishga ijobji ta'siri tadqiqot maqsadi sifatida o'rganilgan. Zamonaivy boshqaruvda xodimlarning shaxsiy javobgarligini kuchayishiga yordam beradigan kompleks-tadbirlar dasturini ishlab chiqarish va ishlashni ta'minlash vositasi ma'naviy tarbiya ekanligi ijtimoiy-falsafiy tahlil qilingan. Jamiyat targ'ibot vositalari ko'p jihatdan kadrlar salomatligi va moddiy ruhiy tarbiyaga bog'liqligi ijtimoiy-falsafiy xulosa va natijalari ochib berilgan.

Abstract

In this article, the positive effect of the moral potential of the civil servant in the management of the state and society on the development of the state is studied as a research goal. It has been analyzed from a business-philosophical point of view that in modern management, moral education is a means of producing and ensuring the performance of a complex program of activities that helps to increase the personal responsibility of employees. The socio-philosophical conclusions and results of the fact that public propaganda tools are largely dependent on personnel health and material spiritual education are revealed.

Аннотация

В данной статье в качестве цели исследования изучается положительное влияние нравственного потенциала государственного служащего в управлении государством и обществом на развитие государства. Проанализировано с бизнес-философской точки зрения, что в современном менеджменте нравственное воспитание является средством производства и обеспечения выполнения комплексной программы деятельности, способствующей повышению личной ответственности работников. Выявляются социально-философские выводы и результаты того, что средства общественной пропаганды во многом зависят от здоровья личного состава и материального духовного воспитания.

Kalit so'zlar. Davlat, jamiyat, ma'naviyat, ma'naviy tarbiya, boshqaruviy tuzatishlar, davlat xizmati, taraqqiyot strategiyasi, intellektual salohiyat.

Ключевые слова. Государство, общество, духовность, духовное образование, административные реформы, государственная служба, стратегия развития, интеллектуальный потенциал.

Key words. State, society, spirituality, spiritual education, administrative reforms, public service, development strategy, intellectual potential.

KIRISH

Davlat va jamiyatning bugungi kundagi boshqaruvi mamlakatda boshqaruv tizimining yangi bosqichini boshladi. Zero "...zamonaviy, oqilona boshqaruv tizimini joriy etish – oldimizga qo'ygan vazifalarni bajarishning asosiy shartidir" [1.]. Bu borada O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy islohotlar Konsepsiysi"ning qabul qilinishi va unda belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirish bo'yicha muhim vazifalardan biri — davlat xizmatining samarali tizimini shakllantirish, davlat boshqaruvni jarayonlarini demokratlashtirishda har bir boshqaruvchi o'z bo'g'inining yetuk rahbari sifatida ma'naviy jarayonlarga o'z hissasini qo'shish [2.] dan iboratdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Buyuk alloma Husayn Voiz Koshifiy "Davlat va jamiyatni siyosatsiz, uni boshqaruvsiz tasavvur qilib bo'lmaydi, chunki bularsiz dunyoning muhim ishlarini tartibga solish vazifasini amalga oshirish mumkin emas, tarbiya va jazo haqidagi qonunlarning bo'limganligi davlat faoliyatining buzilishiga olib keladi" [3.3.], deb ta'kidlaydi. Bu esa davlat va jamiyat boshqaruvida tarbiyaning muhim ekanligini anglatadi. "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining mustahkam tayanchi va suyanchi bo'ladigan tarixiy-ma'naviy omil, ya'ni bizning eng katta boyligimiz – xalqimizning ulkan madaniy merosi, intellektual salohiyatidir" [4.31.]. Bizningcha, davlat boshqaruvining asosi hisoblangan rahbar kadrlar va ularning ma'naviy salohiyati jamiyatning aynan bugungi va kelajak taqdirini belgilab beradi. Faylasuf olimlar ta'kidlaganidek, "...davlat boshqaruvini isloh qilish

jarayonida boshqaruv samaradorligi: davlat xizmatlarining maksimal darajadagi kafolati; davlat tuzilmalari va fuqarolarning o'zaro mas'uliyati; davlat tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarning sifati bilan o'lchanadi. Bundan tashqari, islohotlarning samaradorligi davlat funksiyalarini amalga oshirish uchun yangi siyosiy texnologiyalarni joriy etish va ulardan foydalanishga bog'liq. Jumladan, "elektron demokratiya", "elektron hukumat", "autsorsing" va "kontraktning aut" usullarini joriy etish, samarali boshqaruv tashabbuslarini qo'llab-quvvatlovchi resurs sifatida davlatning muhim vazifalarini bajarishga qodir bo'lgan fuqarolik jamiyatining turli tuzilmalarini boshqarishga amaliy yordam beradi"[5.17.]. Bundan ma'lumki, davlat boshqaruvida samaradorlik muhim ahamiyatga ega ekan, demak rahbar kadrlarning faoliyatini olib borishida ularning nafaqat siyosiy bilimi, balki ularning ma'nnaviy va ma'rifiy darajasi ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Boshqaruvga ta'sir qiladigan ijobji xislatlar ichida eng muhimi rahbar kadrlarning ma'nnaviy salohiyati va ularning tarbiyasidir.

2017-yilda Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi" to'g'risidagi tarixiy hujjatda salohiyat va imkoniyatimiz xolis baholanishi bilan birga, xato va kamchiliklarimiz ham atroficha tanqidiy tahlil etildi. Bu esa "Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi farmoni bilan tasdiqlangani 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning usuvor yo'nalishi va vazifalari bilan bevosita bog'liqdir. O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida Harakatlar strategiyasi orqali bиринчи мarta davlat boshqaruvini isloh qilish davlat xizmati institutini rivojlantirish bilan bog'liq holda olib borilishi belgilab qo'yildi. Chunki, aynan davlat islohotlarni amalga oshiradi va moliyalashtiradi. "Harakatlar strategiyasining bosh maqsadi demokratik jamiyatning jadal rivojlanishini ta'minlovchi ichki mexanizmlarni tezroq barpo etishdir. Davlat boshqaruvini takomillashtirib, uni jadal o'zgarib borayotgan hayot talablariga muvofiqlashtirib borish har bir mamlakat oldida turgan muhim vazifa bo'lsa kerak"[6.191.]. Bizningcha, har bir jamiyatda boshqaruv sohasidagi modernizatsiya jarayonlari nafaqat siyosiy balki ijtimoiy-ma'nnaviy jarayonlarning o'zgarishlariga ham bog'liqdir.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Davlat va jamiyat boshqaruviga ma'nnaviy tarbiyaning ta'siri rahbarni mas'uliyatli anglashni o'rgatadi. Bizningcha, ma'nnaviy tarbiya ko'rgan rahbar mas'uliyatli, axloq nuqtayi nazardan maqsadga erishish uchun ma'nnaviy kuchdan foydalanish barcha odamlar uchun maqsadlar va muayyan maqsadlarni yaratish va amalga oshirish darajasidir. Rahbarning ma'nnaviy kuchi – maqsadga erishishda qaror qabul qilish jarayonining insonparvarligi va ijtimoilashuvida namoyon bo'ladi. Davlat va jamiyat boshqaruviga ma'nnaviy tarbiyaning ta'siri salbiy yoki ijobjiy bo'lishi mumkin. Rahbarlikni amalga oshirish uchun kuch va qadriyatlarga asoslanish muhim hisoblanadi. Agar faqat kuch ishlatsa faoliyat salbiy hisoblanishi mumkin. Aksincha, kuch va qadriyatlarni axloq talablariga muvofiq ishlatsa boshqaruv o'z maqsadiga va qarorlar ijrosining ijobjiy jihatlariga erishish mumkin bo'ladi. Mas'uliyat — mas'uliyatli rahbarlikning bиринчи qarashlari va qadriyatidir. Bizningcha, boshqaruv va mas'uliyat bir-biri bilan chambarchas bog'liq qarashlardir. Kuch — bu qaror qabul qilish va amalga oshirish qobiliyati. Har bir inson, shu jumladan chaqaloqlar, o'z ustidan hokimiyatdan tortib, millionlab odamlarni boshqaradigan hokimiyatgacha ma'lum bir kuchga ega.

Bizning fikrimizcha, shaxs qanchalik ko'p ma'nnaviy kuchga ega bo'lsa, mas'uliyatni ham shunchalik ko'p his qiladi. Boshqaruvda kuchga ega bo'lmasa, hech narsa uchun javobgar bo'la olmaydi, lekin kim hokimiyatdan mas'uliyatsizlik bilan foydalansa, uni suiste'mol qiladi. Yetakchilikning, o'z ortidan ergashtirishning eng to'g'ri yo'li – bu shaxsiy o'rnak va namuna bo'lishdir[7.177.]. Bizningcha, shaxsiy namuna mas'uliyatdir. Lokal va global tashabbuskorlik mas'uliyatli yetakchilikni asosiy belgisidir. Shu o'rinda, davlat va jamiyat boshqaruviga ma'nnaviy tarbiyaning ta'siri "...axloqiy, qadriyatlarga asoslangan global tajribaning ijtimoilashuviga erishish uchun yetakchilik mas'uliyati taraqqiyotga barqaror ta'sir etadi"[8.].

XULOSA

Davlat boshqaruvi yangicha talablardan kelib chiqib yuksaladi. Shunday ekan, "Demokratiyani harakatlantiradigan, uni amalga oshiradigan va rivojlantiradigan kuch-insondir. Demokratiya faqat xalq hokimiyati bo'lib qolmay, u har bir inson har bir jamoa va butun xalqning o'z mamlakati kelajagi, o'z taqdiri oldidagi mas'uliyati hamdir"[9.10.]. Bu esa ma'nnaviy tarbiyali shaxslarning rahbar bo'lishi jamiyat va davlat boshqaruvida faqat ijobjiy yuksalishlarda namoyon bo'ladi.

FALSAFA

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Toshkent.: 28.12.2018 y. // Manba: <https://president.uz/uz/lists/view/2228>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 8 sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5185-son Farmoni. "Xalq so'zi" gazetasi, 2017 yil 9 sentyabr, 180 (6874)-son.
3. Muhiddinova F. Adolatnoma // "Huquq va burch" ijtimoiy huquqiy jurnali № 12. -Toshkent.: 2008.
4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyoti strategiyasi. Uchinchi nashr. – Toshkent: "O'zbekiston"nashriyoti. 2022.
5. Mirzaaxmedov K. M. O'zbekistonda davlat boshqaruvi jarayonlarini demokratlashtirish evolyutsiyasi. Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent.
6. Omonov B.A. Jamiyatni modernizatsiyalashning kontseptual asoslari. Toshkent. "Aloqachi", 2019.
7. Mirziyoyev. Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. Toshkent. "O'zbekiston" NMIU, 2020.
8. Globally Responsible Leadership Initiative, Globally Responsible Leadership. A Call for Engagement, European Foundation for Management Development, 2005. <http://www.grli.org/index.php/resources/publications> (Accessed 1 Nov. 2014).
9. Nazarov Q. Eng katta boyligimiz – tinchlik va barqarorlikni asraylik. Toshkent. "Akademiya" 2006.